

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmi



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'atlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi


Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 014,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1025,0 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8014,2	103,5
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	455,1	109,5
Moliyaviy xizmatlar	1 345,8	126,6
Transport xizmatlari	1 502,3	102,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 403,7</i>	<i>105,3</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	172,1	97,1
Savdo xizmatlari	2 623,4	99,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	205,2	94,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	397,3	111,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	152,8	87,0
Ijara xizmatlari	180,7	118,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	199,2	96,2
Shaxsiy xizmatlar	466,9	92,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	120,1	67,3
Boshqa xizmatlar	193,3	96,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 32,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi


birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,7 %), moliyaviy xizmatlar (16,8 %), boshqa shaxsiy xizmatlar (5,8 %) qayd etildi.



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush Sog'liqni saqlash soxasidagi xizmatlar - 1,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,1 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (32,7 %), transport xizmatlari (18,7 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (16,8 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoxda.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi



Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.

Omborxona va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 6,3 % ni tashkil etdi.


Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,3% ni qayd etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,7 % ni tashkil etib, bu 2 623,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida)



**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosidan,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda**

**Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar savdosidan
tashqari)**

**Avtomobillar
va mototsikllar savdosidan
tashqari chakana savdo
bo'yicha xizmatlar**

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajmida savdo xizmatlari hajmining 79,9 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 345,8 mlrd. so'mni - tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi 982,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiyligi hajmidagi ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 14,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 363 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 26,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 169,2 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2020- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1345,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 126,6 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (92,0 %) tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 455,1 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 109,5 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 97,2 % ni tashkil etdi.

Nashriyot xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarinung 2,0 % ni tashkil etadi

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Taʼlim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida taʼlim sohasidagi xizmatlar hajmi 397,3 mlrd. soʼmga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi. Oʼtgan yilning mos davriga nisbatan oʼshish surʼati 111,3 % ni tashkil etdi.




Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 97,1 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 172,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmi hajmidagi ulushi atigi 2,1 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan turar joy va umumiylajmi ovqatlanish xizmatlari hajmi 16,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,3 % bilan ustunlik qiladi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmat-larning hajmi 152,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,9 % ni tashkil qildi.



Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2830,3 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi - 2 830,3 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 101,4 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 311 ming so'mga

Namangan viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
(69) 227-85-28